

ONA TILI DARSLARIDA O’QUVCHILARNING BOG’LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY PEDAGOGIK ILDIZLARI

Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang’ich
ta’lim innovatsiyalari kafedrası o’qituvchisi
Adashboyeva Dilshoda Ulug’bek qizi
BTS-GU-23 guruh talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21153959>

Annotatsiya: Ushbu maqola ona tili ta’limida o’quvchilarning bog’lanishli nutqini o’stirish masalasining tarixiy-pedagogik asoslarini yoritib beradi. Sharq va G’arb pedagoglarining nutq madaniyati borasidagi qarashlari qiyoslanadi.

Kalit so’zlar: Nutq o’stirish, notiqlik san’ati, bog’lanishli nutq, nutqning pedagogik asoslari, nutq odobi, inson tafakkurining ko’zgusi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются историко-педагогические основы проблемы развития речи учащихся детского сада в условиях обучения родному языку. Сравняются взгляды педагогов Востока и Запада на культуру речи.

Ключевые слова: Развитие речи, ораторское искусство, связная речь, педагогические основы речи, речевой этикет, зеркало человеческого мышления,

Annotation: This article is about native language education growing students’ Garden speech highlights the historical and pedagogical foundations of the issue. Speech culture of eastern and Western educators their views are compared.

Keywords: Speech kulture, oratory, linkage speech, pedagogical of speech fundamentals, speech etiquette, mirror of human thought

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Havas qilsa arziydigan ulug’ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman; nasib etsa, havas qiksa arziydganbuyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo’ladi”.

Pedagogikada bog’lanishli nutq tushunchasi mazmunan va mantiqan izchil, grammatik jihatdan to’g’ri shakillangan, tugal fikrni ifodalovchi nutq shakli sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda ona tili ta’limining ustuvor vazifasi o’quvchini shunchaki grammatik qoidalarni yodlovchi emas, balki o’z fikrini erkin va ravon bayon eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayonning poydevori ko’p asrlik pedagogik merosimizga borib taqaladi. Bog’lanishli nutqni o’stirishning ilk ildizlari antik davr notiqlik san’ati ya’ni ritorika bilan bog’liq. Aristotel, Sitseron va Kvintilan kabi mutafakkirlar nutqning tuzulishi, mantiqiyligi va ta’sirchanligi bo’yicha fundamental qoidalarni ishlab chiqqanlar. Misol uchun Aristotelning “Ritorika” asari nutqning uch asosi

Etos - Xalq

Pafos - His- tuyg‘u

Logos - Mantiq

Bog‘lanishli nutqning ilk ilmiy modeli bo‘lib xizmat qilgan.

Kvintlianning yondashuvi u nutq o‘stirishni go‘daklikdan boshlash va badiiy asarlarni qayta hikoya qilish orqali shakllantirish lozimligini ta’kidlagan. Haqiqatdan ham nutqni ravon chiroyli qilish uchun inson avvalo madaniy muhitlarda ko‘proq bo‘lmog‘i va badiiy, ilmiy asarlarni ko‘plab mutolaa etishi lozimdir.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida nutq madaniyati O‘rta asrlarda Sharq uyg‘onish davri namoyondalari til va nutq birligiga alohida e’tibor qaratishgan. Ularning asarlarida bog‘lanishli nutq “balog‘at” va “fasohat” ilmlari doirasida o‘rganilgan. Xususan X asrda yashab ijod etgan O‘rta osiyoning mutaffakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy asarlarida “Nutq so‘zlovchining ichki idroki va tashqi ifodasidir”, - deya ta’rif berib, mantiq ilmini nutqning “ichki qonuni” deb hisoblagan. Har bir inson o‘z ichki dunyosi, fikrlash doirasiga qarab doimo nutq so‘zlaydi insonlat bilan muloqotda bo‘ladi. Olimlarning ta’kidlashicha insonlar bilan muloqot mobaynida ularning so‘zlayotgan so‘zlariga qarab ularning so‘z boyliklari haqida badiiy yoki ilmiy asarlar o‘qishlari haqida ma’lumotlar olish mumkin ekan. Chunki inson muloqot davomida o‘qigan asarlaridagi foydalanilgan so‘zlardan foydalanar ekan. Nutqni o‘stirish san’ati qadimdan shakllanib kelgan. Sharq pedagogikasida bog‘lanishli nutq masalasi “Adab” tushunchasi bilan chambarchas bog‘langan. Nutq madaniyati inson ma’naviyatining ko‘zgusi hisoblangan. Shu jumladan Mahmud Koshg‘ariyning bog‘lanishli nutqni rivojlantirish va til o‘qitish metodikasi tarixidagi o‘rni beqiyosdir. Uning XI asrda yaratgan “Devoni lug‘atit turk” asari shunchaki lug‘at emas, balki turkiy tillarni o‘qitish, nutq madaniyati va stikistikasini o‘rgatuvchi ilk mukammal pedagogik manba hisoblanadi. Koshg‘ariy turkiy urug‘lar shevalarni o‘zaro qiyoslash orqali tilning en tog‘ri va tushunarli shakllarini adabiy til elementlarini ajratib ko‘rsatgan. Bog‘lanishli nutq uchun eng muhim omil - so‘zlarning o‘zaro birikish qonuniyatlarini u ilk bor ilmiy tartibga solgan. U so‘zlarni shunchaki sanab o‘tmay, ularni gap ichida, jonli muloqotda qanday qo‘llanishini misollar bilan tushuntirgan.

Koshg‘ariy lug‘atdagi har bir so‘zning ma’nosini ochishda kontekst matn usulidan foydalangan. Bog‘lanishli nutqni shakllantirishda u quyidagi materiallarni tizimli ravishda kiritgan:

Xalq og‘izaki ijodi namunalari: maqollar, matallar va hikmatli so‘zlar.

She’riy parchalar : lirik qahramonlik va tabiat tasviriga oid to‘rtliklar.

Etik normalar: nutqning ijtimoiy vaziyatga mos bo‘lishi masalan kattalar bilan qanday so‘zlashish odobi.

Koshg‘ariy so‘zining nutqdagi o‘rnini ya’ni bog‘lanishini uning ma’no tovlanishlari orqali tushuntiradi. U birgina so‘zning turli gaplarda, turli bog‘lanishlarda qanday ma’no berishni isbotlab bergan. Bu bugungi metodikadagi “Nutqning aniqligi va mantiqiyli” tamoyilining tarixiy ildizidir. Koshg‘ariy o‘z yozgan asarlarida maqollardan bog‘lanishli nutqning andozasinsifatida foydalangan. U maqollarni nutqning eng oliy va bog‘lanishlu shakli deb bilgan. Uning fikricha maqollar fikrni qisqa, lo‘nda va mantiqiy yakunlangan shaklda yetkazishni o‘rgatadi, o‘quvchining nutqiy malakasini

oshiradi, chunki tayyor mantiqiy konstruksiyalar nutqning ravonligini ta’minlaydi. U asarini shunday tuzganki, avval soʻz leksika, keyin uning shakllari morfologiya va nihoyat gapda qoʻllanishi sintaksis va stilistika oʻrin olgan. Bu izchillik oʻquvchilarda bogʻlanishli nutqni bosqichma - bosqich rivojlantirishning klassik namunasi hisoblanadi. Mahmud Koshgʻariy nafaqat tilshunos, balki buyuk metodist hamdir. U turkiy tilda bogʻlanishli nutqni shakillantirishning asosiy vositasi sifatida matn ustida shakillantirishning asosiy vositasi sifatida matn ustida ishlashni folklor va adabiy namunalar orqali ilmiy muomalaga kiritgan birinchi pedagogdir. Uning bugungi merosi ona tili darsliklaridagi “Nutq oʻstirish” boʻlimlarining mantiqiy asosi boʻlib xizmat qiladi.

X asrda yashab ijod etgan faylasuf, ensiklopediyachi olim, astranom matematik oʻz davrining mashhur olimlaridan yana biri bu Abu Nasr Farobiydir. Farobiy bogʻlanishli nutqni rivojlantirish masalasiga shunchaki til oʻrganish emas, balki mantiq va tafakkur birligi sifatida yondashgan. Uning pedagogik qarashlarida nutq insonning intellektual va axloqiy qiyofasini belgilovchi bosh omil hisoblanadi. Farobiy oʻzining mantiqiy risolalarida, xususan “Nutq soʻzlash haqidagi” asarlarida nutqni ikki qismga ajratadi

Ichki nutq (Nutfun daxili) - bu inson ongida shakillanadigan mantiqiy fikrlash jarayoni. Uning fikricha, fikr pishagan boʻlsa, uni tilda bogʻlanishli ifodalash imkonsiz

Tashqi nutq (Nutfun xariji) - ichki fikrning tovush va soʻzlar orqali boshqalarga yetkazilishidir. Farobiy mantiq ilmini grammatika bilan qiyoslaydi. Uning mashhur oʻxshatishiga koʻra: grammatika soʻzlarning toʻgʻri talaffuzi va yozilishini oʻrgatsa, mantiq fikrlarning bir-biriga bogʻlanishi, izchilligi va xatolardan xoli boʻlishini taʼminlaydi. Farobiy ona tili darslarida oʻquvchilarga mantiq qoidalarini oʻrgatish orqali ularning nutqidagi uzilishlar va chalkashliklarning oldini olishni tavsiya qilgan. “Fozil odamlar shahri” asarida esa Farobiy jamiyat aʼzolarining oʻzaro muloqotini bogʻlanishli nutq darajasida bogʻlaydi. Uning fikricha, rahbar va muallim oʻz fikrini shunday bogʻlanishli va aniq bayon qilishi kerakki, tinglovchi uni hech qanday shubxasiz qabul qilsin. Bu esa oʻqituvchining nutq madaniyati oʻquvchi uchun asosiy andoza ekanligini koʻrsatuvchi tarixiy dalildir. Abu Nasr Farobiy ona tili darslarida bogʻlanishli nutq ustida ishlashni grammatika, mantiq, adabiyot uchligining sintezi deb bilgan. U oʻquvchi nutqini shunchaki gaplar yigʻindisi emas, balki puxta oʻylangan mantiqiy tizim sifatida rivojlantirish gʻoyasini ilgari surgan ilk buyuk pedagoglardan biridir.

Oʻquvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon boʻlib, unga monelik qilayotgan omillar ham yoʻq emas albatta yaʼni ayrim oʻquvchilarning darslardan tashqari badiiy adabiyotlarni kam oʻqishlari yoki, tengdoshlari va oʻzlaridan yoshi katta insonlar bilan kam muloqot qilishlari sababli nutqlari kam rivojlanishi muloqot jarayonida oqsashlari mumkin. Lekin bu omillarga qaramay barcha imkoniyatlardan toʻlaligicha foydalanilsa fikrni ogʻzaki va yozma ravishda toʻgʻri, ravon ifodalashga oʻrgatish jarayoni yanada oson kechadi. Oʻquvchi nutqini rivojlantirishga keng yoʻl ochadi. Bizga maʼlumki, oʻquvchilar bir xillikdan zerikishadi. Shuning uchun ularning nutqini oʻstirishda doimo har xil metod va oʻyinlardan foydalanish lozim. Quyida ulardan namunalar keltirilgan.

“Safar” O‘quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma’lumbir joygacha bo‘lgan yo‘nalishni tasvirlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar bir necha kun davomida berilgan “obyekt”ni kuzatadilar va uni og‘zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, zyraklik, kuzatuvchanlik, atrof- muhitga diqqat-e’tibor talab etiladigan bu o‘yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor atrofga e’tiborli bo‘lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari mazkur o‘yinlardan foydalanganda o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug‘at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarini o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o‘stirishga yo‘naltirilgan har bir mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Jamiyatimizni erkinlashtirish g‘oyasi bevosita ta’lim jarayonida o‘z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o‘zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirishva demokratlashtirish asosida ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. - T.:O‘qituvchi, 1980.66-bet.
2. Karimova V.M, Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.,N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq,2000.
3. Axmedova G.M. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2007.
4. Haydarova M.E. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2009.
5. Toshpo‘latova N. (2023). Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda sinfdan toshqari ishlarni tashkil etish turlari. Pedagogika fanlarining shakllanishida nazariy jihatlar , 2 (8), 77-83.
6. Toshpo‘latova N. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish mazmuni. Sharh va tadqiqot , 1 (1).
7. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. -T., 2001.
8. Babayeva. D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
9. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyul poligraph service, 2008,-224 b.
10. Matchonov S., G'ulomova X. Nutq madaniyati. // Boshlang'ich ta'lim. 2000. -№1. -8-10-b.
11. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh., Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: Noshir, 2009, -352 b.
12. Sariyev Sh. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida nutq o'stirish. // Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy kasbiy ta'lim muammolari: Respublika ilmiy anjumani materiallari. -Guliston: -2008,-29b.
13. Abdurakhmonova, G. R. (2025). Nigeria. Methods Of Forming Students' Oral And Written Speech In Mother Language Classes. International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research, 1(5), -P. 249-254.

14. Abduraxmonova G.R. Bogʻlanishli nutq va uning tasnifi. //Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2022-y maxsus son, Namangan, - B. 711-714 ISSN:2181-0427.

15. Abduraxmonova G.R. Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida oʻquvchilarning bogʻlanishli nutqini rivojlantirishda innovatsion taʼlim texnologiyalaridan foydalanish. // "Образование наука и инновационные идеи в мире" международный научный электронный журнал 14-son.1-fevral, 2023, Rossiya, Published: 2023-01-21. -C. 72-79.

16. Abduraxmonova G.R. Boshlangʻich Guruhlarda ona tili va oʻqish savodxonligi darslari orqali oʻquvchilarning bogʻlanishli nutqini rivojlantiruvchi texnologiyalar. //Namangan davlat universiteti Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida universal taʼlim faoliyatlarini shakllanitirish, rivojlantirish va takomillashtirish. Nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami 2023-yil, 31-mart, Namangan, - B. 60-65.

17. Abduraxmonova G.R. Bogʻlanishli nutqning taʼlim sifatini oshirishda va oʻquvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati. //Namangan davlat universiteti. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida universal taʼlim faoliyatlarini shakllanitirish, rivojlantirish va takomillashtirish. Nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami 2023. Namangan, -B. 375-378.